O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Sarsabil mahsuloti sifati va marketing nazorati

(FFV-04:2023, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #3ZUSPTSD43 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQILDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 18-avgustdagi 30/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3 Ushbu standart FFV-04:2023 “Marketing and commercial quality control of asparagus” xalqaro standartning matni bilan aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #3ZUSPTSD43 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Izoh

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi(UNECE)ning Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni osonlashtirish, yuqori sifatli ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, daromadni oshirish va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. UNECE standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, importchilar va eksportchilar hamda boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladi. Ushbu standartlar keng turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini, jumladan, yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini qamrab oladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining har qanday a’zosi Ishchi guruh faoliyatida teng asosda ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari haqida batafsil ma’lumot olish uchun bizning veb-saytimizga tashrif buyuring: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html.

Ushbu qayta ko‘rib chiqilgan Sarsabil standarti Ishchi guruhning yetmish sakkizinchi sessiyasida qabul qilingan ECE/CTCS/WP.7/2023/8 hujjatiga asoslangan.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar sirtga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #3ZUSPTSD43 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

SARSABIL MAHSULOTI SIFATI VA MARKETING NAZORATI

КОНТРОЛЬ КАЧЕСТВА И МАРКЕТИНГА ПРОДУКЦИИ СПАРЖИ

ASPARAGUS PRODUCT QUALITY AND MARKETING CONTROL

Amalga kiritish sanasi: 01.09.2026-yil

I. Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart iste’molchiga barra holda yetkazib berish uchun mo‘ljallangan Asparagus officinalis L. oilasiga mansub navlardan (madaniylashgan) yetishtirilgan sarsabil novdalariga nisbatan qo‘llaniladi. Sanoatda qayta ishlash uchun mo‘ljallangan sarsabil bundan mustasno.

Sarsabil rangiga ko‘ra to‘rt guruhga bo‘linadi:

- oq sarsabil;
- binafsha rangli sarsabil, uch qismi pushtidan binafsharanggacha yoki to‘q binafsharang tusda bo‘lib, novdasining bir qismi oq rangga ega;
- binafsha/yashil sarsabil, uning bir qismi binafsha va yashil rangga ega;
- yashil sarsabilning uchlari va novdasining ko‘p qismi yashil rangga ega.

II. Sifatga oid talablar

Ushbu standartning maqsadi sarsabilni tayyorlash va qadoqlash ishlaridan keyin sifat talablarini belgilashdan iborat. Biroq, eksportga jo‘natishdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilsa, mahsulotlar standart talablariga nisbatan quyidagilarni ko‘rsatishi mumkin:

- biroz barralik va taranglikning yetishmasligi;
- "Ekstra" sinfidan boshqa sinflarga mansub mahsulotlar uchun ularning rivojlanishi va nobud bo‘lishiga moyilligi tufayli sifatning pasayishi;

Mahsulot egasi (sotuvchisi) mazkur standart talablariga muvofiq bo‘lmagan mahsulotlarni namoyish qilish, sotuvga taklif qilish, yetkazib berish yoki boshqa har qanday usulda muomalaga chiqarish huquqiga ega emas. Mahsulot egasi (sotuvchisi) ushbu talablarga rioya etilishi uchun javobgar hisoblanadi.

A. Minimal talablar

Barcha sinflarda, har bir sinf uchun maxsus qoidalar va ruxsat etilgan chegaralarni hisobga olgan holda, sarsabil:

- butun bo‘lishi;
- sog‘lom bo‘lishi; chirigan yoki iste’mol qilish uchun yaroqsiz holga keltiruvchi darajada buzilgan mahsulotlarga yo‘l qo‘yilmaydi;
- toza, ko‘zga ko‘rinadigan har qanday begona aralashmalardan deyarli xoli bo‘lishi;

Rasmiy nashr
STANDARTLAR INSTITUTI #3ZUSPTSD43 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- tashqi ko‘rinishi barra va hidi toza bo‘lishi;

- zararkunanda hasharotlardan deyarli xoli bo‘lishi;

- zararkunanda hasharotlar ta’sirida yuzaga kelgan shikastlanishlardan deyarli xoli bo‘lishi;

- deyarli ezilmagan bo‘lishi;

- me’yordan ortiq tashqi namlikdan xoli, ya’ni yuvilgan yoki sovuq suv bilan sovitilgan bo‘lsa, yetarli darajada quritilgan bo‘lishi;

- har qanday begona hid va/yoki ta’mdan xoli bo‘lishi.

Novdaning asos qismidagi kesim imkoni qadar toza va silliq bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari, sarsabil ichi bo‘sh, yorilgan, archilgan yoki singan bo‘lmasligi kerak. Biroq, yig‘ib olinganidan keyin paydo bo‘lgan kichik yoriqlarga, agar ular IV bo‘lim, A qismi – «Sifat bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar»da belgilangan me’yorlardan oshmasa, yo‘l qo‘yiladi.

Sarsabilning rivojlanishi va holati quyidagilarga imkon beradigan bo‘lishi kerak:

- tashish va yuklash-tushirish jarayonlariga chidamli bo‘lishi;

- belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borishi.

B. Tasniflash

Sarsabil quyida ta’riflanganidek uchta sinfga tasniflanadi:

(i) “Ekstra” sinf

Ushbu sinfdagi sarsabil eng yuqori sifatli, juda yaxshi shakllangan va deyarli to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Ular nav va/yoki tijorat turining o‘ziga xos xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim. Mansub bo‘lgan guruhning odatiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning uch qismi juda zich bo‘lishi kerak.

Novdada iste’molchi tomonidan normal tozalash orqali olib tashlanishi mumkin bo‘lgan juda oz zang izlariga ruxsat beriladi.

Oq sarsabil guruhi uchun uch qismi va novdalari oq bo‘lishi kerak; novdalarda faqat yengil pushti tusga yo‘l qo‘yiladi.

Yashil sarsabil to‘liq yashil rangda bo‘lishi lozim.

Ushbu sinfdagi novdalarda yog‘ochsimon belgilariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Novdaning asos qismidagi kesim imkoni qadar to‘g‘ri va tekis bo‘lishi kerak. Biroq, sarsabil bog‘lamlarda qadoqlanganda tashqi ko‘rinishini yaxshilash maqsadida tashqi tomondagi novdalarning kesimi biroz qiya qilinishi mumkin, ammo qiyalik 1 cm dan oshmasligi lozim.

Ular mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanish sifatiga va qadoqdagi ko‘rinishiga ta’sir qilmaydigan juda kichik yuzaki nuqsonlardan tashqari nuqsonlardan xoli bo‘lishi kerak.

(ii) I sinf

Ushbu sinfdagi sarsabil yaxshi sifatli bo‘lishi kerak. Ular nav va/yoki tijorat turining xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim. Mansub bo‘lgan guruhning odatiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning uch qismi zich bo‘lishi kerak.

Yashil sarsabilning kamida 80 foiz qismi yashil rangda bo‘lishi lozim.

Novdaning asos qismidagi kesim imkon qadar to‘g‘ri va tekis bo‘lishi kerak.

Biroq, quyidagi kichik nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin, agar ular mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlash sifatiga va qadoqdagi ko‘rinishiga ta’sir qilmasa:

- shakldagi kichik nuqson, ya’ni novdalar biroz egilgan bo‘lsa;

STANDARTLAR INSTITUTI #32C5F1E345 - 29.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

- oq sarsabil guruhining uchlari va novdalarida och pushti rang bo‘lsa;

- iste’molchi tomonidan oddiy tarzda po‘stini tozalash orqali olib tashlanishi mumkin bo‘lgan zang dog‘larining kichik izlari bo‘lsa;

- binafsharang, binafsha-yashil va yashil sarsabil guruhi novdasining pastki qismida oz miqdorda yog‘ochsimon bo‘lsa, agar ushbu holat iste’molchi tomonidan odatdagi tarzda po‘stlog‘i artilganda bartaraf etilsa, yo‘l qo‘yiladi.

(iii) II sinf

Ushbu sinfga yuqori sinflarga kiritish mumkin bo‘lmagan, lekin yuqorida ko‘rsatilgan minimal talablarga javob beradigan sarsabillar kiradi.

Yashil sarsabilning kamida 60 foiz qismi yashil rangda bo‘lishi lozim.

Novdaning asos qismidagi kesim biroz qiya bo‘lishi mumkin.

Agar sarsabil o‘zining sifati, saqlanish sifati va ko‘rinishi bo‘yicha asosiy xususiyatlarini saqlab qolgan bo‘lsa, quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

- shakldagi nuqsonlar, ya’ni novdalar I sinfga qaraganda ko‘proq egilgan bo‘lishi va ular mansub bo‘lgan guruhning normal xususiyatlarini hisobga olgan holda, uchlari biroz ochiq bo‘lishi;

- oq sarsabil uchlarining yashil tusda bo‘lishi va binafsharang sarsabil uchlarining och yashil tusda bo‘lishi;

- iste’molchi tomonidan normal tozalash orqali bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan zang izlari;

- biroz yog‘ochsimon bo‘lishi.

III. O‘lchamlashga oid qoidalar

O‘lcham novdaning uzunligi va diametriga qarab belgilanadi.

A. Uzunligi bo‘yicha o‘lchamlash

Novdalarning uzunligi quyidagicha bo‘lishi kerak:

- uzun sarsabil uchun — 17 cm dan yuqori;

- qisqa sarsabil uchun — 12 cm dan 17 cm gacha;

- II sinfdagi sarsabil qadoqda bog‘lam holatida joylashtirilgan, ammo bog‘lanmagan bo‘lsa:

  - oq va binafsharang sarsabil — 12 cm dan 24 cm gacha;

  - binafsha-yashil va yashil sarsabil — 12 cm dan 27 cm gacha;

- sarsabil uchlari uchun — 12 cm dan kam.

Oq va binafsharang sarsabilning ruxsat etilgan maksimal uzunligi 24 cm, binafsharang-yashil va yashil sarsabilniki esa 27 cm ni tashkil etadi.

O‘lchamlar bir xilligini ta’minlash maqsadida, mahkam bog‘langan bog‘lamlarda qadoqlangan novdalar uzunligi o‘rtasidagi farq 5 cm dan oshmasligi kerak.

B. Diametri bo‘yicha o‘lchamlash

Novdalarning diametri ular uzunligining o‘rta nuqtasida o‘lchanadi.

STANDARTLAR INSTITUTI #3ZUSPTSD43 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Oq va binafsha sarsabil:

Sinf	*Minimal diametr*	*Bir xil qadoq yoki bog‘lamdagi mahsulotlarning o‘lchamlari orasidagi farq quyidagidan oshmasligi kerak*
“Ekstra sinf”	12 mm	8 mm
I	10 mm	10 mm
II	8 mm	Bir xillikka nisbatan talab belgilanmagan

Binafsha-yashil rangli va yashil qushqo‘nmas:

Sinf	*Minimal diametr*	*Bir xil qadoq yoki bog‘lamdagi mahsulotlarning o‘lchamlari orasidagi farq quyidagidan oshmasligi kerak*
“Ekstra” va I	3 mm	8 mm
II	3 mm	Bir xillikka nisbatan talab belgilanmagan

IV. Ruxsat etilgan chetlanishlarga oid qoidalar

Savdoning barcha bosqichlarida har bir to‘p uchun belgilangan sinf talablariga javob bermaydigan mahsulotlarga nisbatan sifat va o‘lcham bo‘yicha ma’lum darajadagi chetlanish-larga yo‘l qo‘yiladi.[1]

A. Sifat bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar

(i) «Ekstra» sinf

Belgilangan sinf talablariga javob bermasa-da, I sinf talablariga mos keladigan yoki yig‘im-terimdan so‘ng yuzaga kelgan yengil, chandiqsiz yoriqlari bor bo‘lgan sarsabilning umumiy miqdori uchun soni yoki og‘irligi bo‘yicha 5 foizlik me’yoriy chekinishga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu ruxsat etilgan me’yor doirasida umumiy miqdorning 0,5 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismi II sinf sifat talablariga javob beradigan mahsulotlardan iborat bo‘lishi mumkin.

(ii) I sinf

Mazkur sinf talablariga javob bermaydigan, lekin II sinf me’yorlariga mos keladigan yoki hosil yig‘ib olingandan keyin paydo bo‘lgan mayda, shikastlanmagan yoriqlari bor qushqo‘nmas uchun soni yoki og‘irligi bo‘yicha 10 foizlik umumiy chetga chiqishga yo‘l qo‘yiladi. Belgilangan me’yor doirasida umumiy miqdorning 1 foizidan oshmagan qismi II sinf talablariga ham, eng past talablarga ham javob bermaydigan mahsulotlardan yoxud chirigan mahsulotlardan iborat bo‘lishi mumkin.

---

[1] Muvofiqlik tekshiruvi birlamchi yoki yig‘ma namunalarni baholash orqali amalga oshiriladi. U tasodifiy tarzda tanlangan namunalar sifati butun to‘p sifatini aks ettiradi degan tamoyilga asoslanadi. Muvofiqlikni tekshirish bo‘yicha Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning amaliy qoidalarini, shuningdek jo‘natish bos-qichida hamda ulgurji va taqsimlash markazlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi omborlarida operatorlar tomonidan qo‘llash tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #3ZUSPTSD43 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

(iii) II sinf

Sinf talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan sarsabilning soni yoki og‘irligi bo‘yicha 10 foizgacha ruxsat etiladi. Ushbu ruxsat etilgan me’yor doirasida chirigan mahsulotlarning umumiy miqdori 2 foizdan oshmasligi kerak.

Yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda, ichi bo‘sh novdalar yoki yuvilish natijasida juda kichik yoriqlar paydo bo‘lgan novdalar uchun soni yoki og‘irligi bo‘yicha 10 foizga ruxsat berilishi mumkin. Har bir o‘ram yoki bog‘lamda 15 foizdan ortiq puch novdalar bo‘lishi mumkin emas.

B. O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar

Barcha sinflar uchun (agar o‘lchami bo‘lsa): o‘lcham talablariga javob bermaydigan hamda belgilangan me’yorlardan uzunligi bo‘yicha ko‘pi bilan 1 cm va diametri bo‘yicha ko‘pi bilan 2 mm chetga chiqqan sarsabil uchun soni yoki og‘irligi bo‘yicha 10 foizlik umumiy yo‘l qo‘yiladigan nomuvofiqlikka ruxsat etiladi.

V. Taqdim etishga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoq yoki bitta qadoqdagi har bir bog‘lamning tarkibi bir xil bo‘lishi va faqat kelib chiqishi, sifati, rang guruhi va o‘lchami (agar o‘lchami bo‘lsa) bir xil bo‘lgan sarsabilni o‘z ichiga olishi kerak.

Biroq, har xil rangdagi sarsabil aralashmasi, agar ular sifati bo‘yicha va har bir tegishli rang uchun kelib chiqishi bo‘yicha bir xil bo‘lsa, bitta qadoqqa joylash mumkin. Biroq, bu aralashmalarda o‘lchamlarning bir xilligi talab etilmaydi.

Qadoq yoki bog‘lam tarkibining ko‘rinadigan qismi butun tarkibni aks ettirishi kerak.

B. Qadoqlash

Sarsabilni shunday qadoqlash kerakki, u mahsulotni yaxshi himoya qilsin

Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar toza va mahsulotga tashqi yoki ichki zarar yetkazmaydigan darajada sifatli bo‘lishi kerak. Materiallardan, xususan, savdo xususiyatlari tushirilgan qog‘oz yoki muhrlardan foydalanishga ruxsat etiladi, bunda bosish yoki tamg‘alash zaharli bo‘lmagan siyoh yoki yelim bilan amalga oshirilgan bo‘lishi shart.

Qadoqlar barcha begona moddalardan xoli bo‘lishi kerak.

VI. Tamg‘lashga oid qoidalar

Har bir qadoq[2] tashqi tomondan ko‘rinadigan, o‘qish oson va o‘chmaydigan tarzda bir tomonga jamlangan holda quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi lozim:

A. Identifikatsiya qilish

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksport qiluvchi:

Nomi va jismoniy manzili (masalan, ko‘cha/shahar/tuman/pochta indeksi va agar kelib chiqish mamlakati bilan farq qilsa, mamlakat nomi) yoki, agar ushbu tizimdan foydalanuvchi

[2] Ushbu tamg‘alash qoidalari ushbu xususiyatlar tushirilgan o‘ramlarda taqdim etilgan savdo qadoqlariga nisbatan qo‘llanilmaydi. Biroq, ular alohida taqdim etilgan sotuv qadoqlariga (oldindan qadoqlarga) nisbatan qo‘llaniladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #3ZUSPTSD43 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

mamlakat UNECE Kod belgilari reyestrida[4] ro‘yxatga olingan bo‘lsa, milliy vakolatli organ[3] tomonidan rasmiy tan olingan kod belgisi. Agar ko‘cha manzili mavjud bo‘lmasa, jismoniy manzil quyidagilardan tashkil topishi mumkin: xo‘jalik yoki obyekt nomi, unga eng yaqin qishloq, shaharcha, hudud va pochta indeksi; yoki GPS koordinatalari hamda eng yaqin shahar, hudud va mamlakat ko‘rsatilgan pochta qutisi (PO Box) manzili jismoniy manzil sifatida qabul qilinishi mumkin[5].

B. Mahsulotning xususiyati

Agar qadoq ichidagilar tashqaridan ko‘rinmasa, “Sarsabil” yozuvidan so‘ng uning rangini bildiruvchi “oq”, “binafsha”, “binafsha/yashil” yoki “yashil” so‘zlari ko‘rsatiladi.

- O‘rinli holatlarda “qisqa videolar” yoki “ ko‘rsatmalar”.

- Bir-biridan yaqqol farq qiluvchi rangdagi sarsabillar aralashmasi uchun “Sarsabil aralashmasi” yoki shunga teng boshqa nom bilan belgilash kerak. Agar mahsulot tashqaridan ko‘rinmasa, qadoqdagi har bir mahsulotning rangi va miqdori ko‘rsatilishi shart.

C. Mahsulotning kelib chiqishi

Kelib chiqish mamlakati[6] va, ixtiyoriy ravishda, yetishtirilgan tuman, milliy, mintaqaviy yoki mahalliy joy nomi.

Agar ranglari aniq farq qiluvchi va turli mamlakatlarda yetishtirilgan sarsabil aralashmasi bo‘lsa, har bir mamlakat nomi tegishli rang nomi yonida ko‘rsatilishi lozim.

D. Tijorat xususiyatlari

- Sinf;

- O‘lchami quyidagicha ifodalanadi:

  - sarsabil uchun – bir xillik qoidalariga muvofiq, minimal va maksimal diametrlar bo‘yicha

  - bir xillik qoidalariga nomuvofiq bo‘lgan sarsabil uchun minimal diametr, so‘ngra maksimal diametr yoki “va undan ortiq” so‘zlari ko‘rsatiladi.

- Bog‘lamlarda yoki alohida iste’mol qadoqlarida sarsabil uchun bog‘lamlar soni yoki alohida qadoqlar soni.

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

1963-yilda qabul qilingan

Oxirgi marta 2023-yilda qayta ko‘rib chiqilgan

OECDning meva va sabzavotlar uchun xalqaro standartlarni qo‘llash sxemasi ushbu standartni qo‘llash bo‘yicha tushuntirishli rasmli broshyurani nashr etdi. Nashrni OECD kitob do‘konidan www.oecdbookshop.org manzilida olish mumkin.

---

[3] Ayrim mamlakatlar milliy qonunchiligida nom va manzilni aniq ko‘rsatish majburiy hisoblanadi. Agar kod belgisi qo‘llanilsa, «qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi» (yoki shunga teng qisqartma) iborasi kod belgisiga yaqin joyda ko‘rsatilishi lozim. Agar kodni tan olgan mamlakat mahsulotning kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, kod oldida ISO 3166 (alpha-2) mamlakat/hudud kodi keltirilishi kerak.

[4] UNECE kod belgilari reyestri: http://www.unece.org/trade/agr/codemarkregistry.html

[5] Amerika Qo‘shma Shtatlarining PO Box manzilidan foydalanish bo‘yicha e’tirozi mavjud, chunki bunday manzil obyektni tekshirish yoki mahsulotni qaytarib olish holatlarida tezkor chora ko‘rish imkonini bermasligi mumkin hamda u mazkur mamlakatning qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksport qiluvchiga oid milliy markirovka talablariga kirmaydi.

[6] Ayrim mamlakatlar milliy qonunchiligida kelib chiqish hududi, viloyati yoki mahalliy joy nomini yanada aniqroq ko‘rsatish majburiy hisoblanishi mumkin.

STANDARTLAR AXBOROT TIZIMIDAN OLINDI - 25.03.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

STANDARTLAR INSTITUTI #3ZUSPTSD43 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI